



UDK: 616.-097:097;614.4(575.1)

Sevara SHUKUROVA

Guliston davlat universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi
E-mail sevara4800@gmail.com

Dotsent PhD D.Xolnazarova taqrizi asosida

OIV INFEKSIYASINING OLDINI OLISH MODELLARI

Annotatsiya

Maqolada OIV infeksiyasining oldini olish bo'yicha ijtimoiy-moslashuvchan yondashuv asosida bir nechta profilaktika modellari tahlil qilinadi: axborot-kommunikatsiyaviy, institutsional, huquqiy, iqtisodiy, bixevioristik va integral model. Tadqiqotning maqsadi – O'zbekiston sharoitida ijtimoiy-demografik omillarni hisobga olgan holda eng samarali profilaktika tizimini aniqlashdir. Metodologiya sifatida strukturaviy-funksional va taqqoslama tahlil, huquqiy sharh hamda amaliy tajriba sintezi qo'llanildi. Ilmiy yangilik – O'zbekiston uchun mos integral profilaktika modeli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: OIV/OITS, profilaktika modellari, ijtimoiy moslashuvchanlik, ijtimoiy kapital, integral yondashuv.

MODELS FOR HIV INFECTION PREVENTION

Abstract

The article analyzes several HIV prevention models based on a socially adaptive approach: informational-communicative, institutional, legal, economic, behavioral, and integral models. The study aims to identify the most effective prevention framework considering Uzbekistan's socio-demographic characteristics. Structural-functional and comparative analyses, legal review, and synthesis of practical experience were applied. The study proposes an integral prevention model adapted to Uzbekistan's context.

Keywords: HIV/AIDS, prevention models, social adaptability, social capital, integral approach

МОДЕЛИ ПРОФИЛАКТИКИ ВИЧ-ИНФЕКЦИИ

Аннотация

В статье рассматриваются модели профилактики ВИЧ на основе социально-адаптивного подхода: информационно-коммуникативная, институциональная, правовая, экономическая, бихевиористская и интегральная. Цель исследования – определить наиболее эффективную модель профилактики с учётом социально-демографических особенностей Узбекистана. Используются структурно-функциональный и сравнительный анализ, нормативно-правовой обзор и синтез практического опыта. Научная новизна – предложена интегральная модель профилактики, адаптированная к условиям Узбекистана.

Ключевые слова: ВИЧ/СПИД, модели профилактики, социальная адаптация, социальный капитал, интегральный подход.

Kirish. Jaxon globallashuv jarayonlarida tashvishga solayotgan asosiy muammolardan biri bu – OIV (odamning immun tanqisligi virusi) infeksiyasining keng miqyosda tarqalishi va unga qarshi kurashishdagi samarasizlik holatlaridir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 1983 yildan beri dunyoda 85,6 millionga yaqin odam OIV/OITS bilan kasallangan, ulardan 40,4 million kishi mazkur virus keltirib chiqaradigan kasalliklardan vafot etgan. Shuningdek, bugungi kunda 39,9 milliondan ortiq OIV bilan yashovchi shaxslarning 53 foizini ayollar va qizlar tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlar OIV infeksiyasining global darajadagi ahamiyati va uning jamiyat uchun keng ko'lamli ijtimoiy ta'sirini yana bir bor tasdiqlaydi [1].

Dunyoda OIV infeksiyasining keng miqyosli tarqalishi bugungi kunda faqat tibbiy muammo sifatida emas, balki keng qamrovli ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlariga ega global inqiroz sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy himoyasizlik, iqtisodiy nochorlik, aholining ma'lum bir qatlamlarida tibbiy madaniyat va savodxonlikning past darajada ekani, shuningdek, jinsiy va reproduktiv ta'limning etarli emasligi infeksiya tarqalishining asosiy ijtimoiy ildizlari sirasiga kiradi[2], etarlicha sog'liqqa e'tibor bermagan muhojirlar tufayli ham OIV tarqalishi tezlashmoqda [3].

OIV profilaktikasining ijtimoiy-moslashuvchan modellari – axborot-kommunikatsiyaviy, institutsional, huquqiy, iqtisodiy, bixevioristik va integral yondashuvlar — tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi O'zbekiston sharoitida ijtimoiy-demografik omillar, stigma va diskriminatsiya darajasi hamda axborotga kirish imkoniyatlarini inobatga olgan holda eng samarali profilaktika modelini ilmiy asoslashdan iborat.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini ijtimoiy-sog'liqni saqlash sohasidagi zamonaviy tahliliy yondashuvlar tashkil etadi. OIV infeksiyasining oldini olishda ijtimoiy determinantlar, xulq-atvoriy omillar va institutsional tizimlarning o'zaro ta'siri sotsiologik, psixologik hamda epidemiologik jihatdan kompleks tahlil qilindi. Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga tayandi: Strukturaviy-funksional yondashuv; Sotsiologik tahlil va taqqoslama metod; Normativ-huquqiy tahlil; Kontent-tahlil; Empirik asos; Bixevioristik (xulq-atvoriy) tahlil; Interdisiplinar yondashuv. Metodologik asoslar yordamida OIV infeksiyasining oldini olishga oid sakkizta asosiy model o'zaro qiyoslandi, ularning O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari baholandi, natijada integral model - eng samarali deb topildi.

Asosiy qism. Zamonaviy jamiyatda OIV infeksiyasining tarqalishi shunchaki tibbiy muammo emas,

balki u keng qamrovli ijtimoiy masala sifatida qaralishi zarur. OIV infeksiyasining tarqalishiga qarshi kurashishda qo'llaniladigan profilaktik chora-tadbirlar universal modellar asosida emas, balki jamiyatning real ijtimoiy-demografik xususiyatlariga va maqsadli guruhlarining individual ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lishi zarur. Bu yondashuv sotsiologiyada "ijtimoiy moslashuvchanlik" (social adaptability) konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, konsepsiyasidagi markaziy g'oya shundan iboratki, har bir sog'liqni saqlash siyosati jamiyatda mavjud ijtimoiy guruhlar – yoshlar, ayollar, mehnat migrantlari, LGBT+ jamoasi, inson savdosidan jabr ko'rganlar va qishloq aholisi uchun alohida strategik yo'nalishda amalga oshirilishi kerak.

Migrantlar uchun til to'siqlarini engish, yuridik xizmatlarga etib borish, ish o'rinlaridagi diskriminatsiya va tibbiy yordam olishdagi to'siqlarni kamaytirish choralari dolzarb. LGBT+ jamoasi uchun esa huquqiy himoya, stigmatizatsiyaga qarshi kampaniyalar, maxsus maslahat markazlari va shoshilinch psixologik yordam xizmatlari joriy etilishi lozim. Bunday yondashuvning ustunligi shundaki, u profilaktika siyosatiga inson huquqlari, ijtimoiy adolat, tenglik va inkluzivlik kabi zamonaviy ijtimoiy tamoyillarni integratsiya qiladi. Bu esa profilaktik tadbirlarning qabul qilinishi, aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va natijadorligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. OIV infeksiyasining tarqalishini cheklash bo'yicha amalga oshirilayotgan profilaktik strategiyalar zamonaviy epidemiologiya va sotsiologiya sohalaridagi tahliliy yondashuvlarga asoslangan holda shakllantirilmoqda. Bu modellar

1. Ma'lumotga asoslangan (axborotli) profilaktika modeli: xabardorlik orqali xulq-atvorni o'zgartirish strategiyasi

OIV infeksiyasining tarqalishini cheklashda ma'lumotga asoslangan (informatsion) profilaktika modeli aholining xabardorlik darajasini oshirish va salomatlik borasida ongli qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan murakkab ijtimoiy-kommunikatsion mexanizmdir [4]. Bu model jamiyatda infeksiya haqidagi bilimsizlik, noto'g'ri qarashlar, afsonalar va xavfli xulq-atvorni bartaraf etishga qaratilgan tizimli axborot siyosatini nazarda tutadi.

Axborot modelida ta'lim tizimi muhim institutsional tayanch hisoblanadi. Ta'lim muassasalari – maktab, kollej, universitetlar – axborotni sistematik va fanlararo yondashuv asosida etkazish imkoniyatiga ega. Reprodukativ sog'liq, infeksiyalarning oldini olish, shaxsiy gigiena va axloqiy qadriyatlar haqidagi bilimlar maktab yoshidan boshlab tizimli ravishda berilishi talab etiladi.

2. Institutsional integratsiyalashgan modeli: sohalararo hamkorlik va profilaktikaning tizimli amalga oshirilishi bilan belgilanadi. OIV infeksiyasining keng tarqalishiga qarshi samarali kurash olib borishda turli ijtimoiy institutlarning uyg'un hamkorligiga asoslangan institutsional integratsiyalashgan model muhim o'rin tutadi. Uning asosiy mohiyati – har bir ijtimoiy institut o'z targ'ibot maydonida, o'z auditoriyasiga xos vositalar orqali OIVga qarshi profilaktik tadbirlarni olib borishdan iborat.

Ushbu model doirasida tibbiyot muassasalari, ta'lim tizimi, mahalla va jamoat tuzilmalari, diniy tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari o'rtasida o'zaro samarali va institutsional asoslangan hamkorlik shakllantiriladi [5].

3. Huquqiy-institutsional (qonunchilikka asoslangan) model, ya'ni qonunchilikka asoslangan model OIV infeksiyasiga qarshi kurashishning muhim strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib, inson huquqlarini himoya qilish, diskriminatsiya va stigmatizatsiyaning oldini olish hamda tibbiy xizmatlarga teng imkoniyatni kafolatlashni ta'minlaydigan ijtimoiy-huquqiy mexanizm sifatida qaraladi.

Bu model OIV infeksiyasiga qarshi samarali profilaktika va davolash tizimini tashkil etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, u sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyatni faqat tibbiy vositalar bilan emas, balki inson huquqlari va qonun ustuvorligini ta'minlaydigan huquqiy asoslar orqali ham mustahkamlaydi. BMT, YuNAIDS va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan qabul qilingan xalqaro tavsiyalarga muvofiq, har bir davlat OIV bilan yashovchi shaxslarning mehnat, ta'lim, tibbiy yordam, ijtimoiy himoya va shaxsiy hayot sohalaridagi huquqlarini to'liq ta'minlashi shart. Modelning asosiy elementlaridan biri – OIV infeksiyasi bo'yicha anonim va ixtiyoriy testdan o'tish imkoniyatini kafolatlashdir.

4. Iqtisodiy barqarorlikka asoslangan model profilaktika xizmatlarida tenglik va ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan. OIV infeksiyasining tarqalishi ko'p hollarda aholining iqtisodiy jihatdan zaif qatlamlari orasida yuqori bo'lishi kuzatiladi.

Bu model quyidagi vazifalarni qamrab oladi: Testdan o'tish imkoniyati, ya'ni iqtisodiy jihatdan ta'minlanmagan guruhlar uchun OIVga ixtiyoriy va anonim test xizmatlarini bepul yoki subsidiyalangan holda taqdim etish; ART terapiyaga etib borish, ya'ni antiretrovirus dori vositalari barcha ehtiyojmand shaxslar uchun kafolatlangan va to'siqsiz bo'lishi shart; Psixologik va huquqiy yordam, ya'ni iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan fuqarolar uchun maslahat xizmatlarini davlat buyurtmasi yoki xalqaro grantlar asosida tashkil etish; Bu modelni amalga oshirishda davlat byudjeti bilan bir qatorda, Xalqaro moliya institutlari va tashkilotlaridan Global Fond, YuNAIDS, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO), YuNISEF va boshqalar tomonidan taqdim etiladigan texnik va moliyaviy yordam [6]. Nodavlat va xususiy jamg'armalaridan kelatigan moliya, ya'ni mahalliy va xorijiy fondlar orqali maqsadli loyihalarni qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi.

5. Pavlovichning bixevioristik modeli – bu OIV infeksiyasining tarqalishini inson xulq-atvori, shaxsiy qarorlari va ularga ta'sir etuvchi omillar orqali tushuntirish va bartaraf etishga yo'naltirilgan intervension yondashuv hisoblanadi [7]. Model bixeviorizm (behaviorism) nazariyasiga asoslanib, shaxsning muayyan stimullarga (tahdid, ma'lumot, ijtimoiy ta'sir, maslahat) javob sifatida yuzaga keladigan xulq-atvor shakllarini o'rganishga va ularni o'zgartirishga qaratilgan. Bixevioristik model nafaqat shaxsiy xavf-xatarlarni kamaytirish, balki jamiyatdagi ommaviy xulq-atvor normalarini qayta shakllantirish imkonini beradi. Agar shaxslar ongli ravishda xatarni tan oladigan va mas'uliyatli qarorlar qabul qiladigan muhitda yashasa, bu xolda sog'lom turmush tarzi umumiy ijtimoiy normaga aylanadi. Bu esa umumjamiyatda infeksiya tarqalishini sezilarli darajada pasaytiradi.

6. Institutsional model – profilaktika xizmatlarini integratsiyalash, turli ijtimoiy institutlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash va jamiyatning salomatlikka oid mas'uliyatini kuchaytirishga qaratilgan samarali yondashuv hisoblanadi. Bu model O'zbekiston sharoitida OIV infeksiyasiga qarshi kurashishning kompleks, uzviy va barqaror tizimini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu model jamiyatning turli darajadagi institutlari – davlat idoralari, nodavlat notijorat tashkilotlar (NNTLar), mahalla va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, ta'lim muassasalari hamda ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni keng qamrovli profilaktik strategiyaning asosiy elementi sifatida ko'radi. O'zbekistonda ushbu yondashuv "OIV infeksiyasiga qarshi kurashish bo'yicha Milliy dastur (2019–2025)"ning asosiy nazariy asoslaridan biri sifatida tan olingan [8]. Dasturda mamlakatdagi barcha manfaatdor tomonlar ishtirokida profilaktika, skrining va

aholiga ma'rifiy xizmatlarning uyg'unlashtirilgan mexanizmi nazarda tutilgan.

7. Xavf guruhlariga yo'naltirilgan maqsadli model. Xavf guruhlariga yo'naltirilgan profilaktika modellari yuqori xavf ostidagi guruhlarga, xususan, in'eksion giyohvand moddalar iste'mol qiluvchilar, tijorat maqsadida jinsiy xizmat ko'rsatuvchilar, LGBT jamoasi va muhojirlar kabi ohangarlardagi shaxslarga qaratilgan maxsus chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu model aholining ayrim qatlamlarida infeksiyaning yuqishi xavfi yuqori bo'lgani uchun, ularga xususiy yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi [9].

Ushbu modelning asosiy maqsadi – xavf guruhlar bilan ishlashda, ularning maqsadli profilaktika choralariga faol jalb etilishini ta'minlashdir. Bunda "Harm reduction" (zararni kamaytirish), "Needle exchange" (shpris almashish), "Mobile outreach" (mobil yordam) kabi intervensiyalar qo'llaniladi.

8. Integral (kompleks) model. Integral profilaktika modeli yoki kompleks yondashuv infeksiya tarqalishini oldini olishdagi eng samarali va tizimli yondashuvlardan biri hisoblanadi. Integral profilaktika modellari ko'p hollarda rivojlangan mamlakatlar amaliyotida, jumladan Germaniya, Braziliya va Kanadada qo'llaniladi. Masalan, Germaniyada OIVga qarshi kurashda mazkur model turli ijtimoiy institutlarning – davlat, nodavlat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va ta'lim tizimining o'zaro hamkorligiga asoslangan. Bu hamkorlik jamiyatning har bir qatlamini profilaktika jarayoniga jalb qilishga xizmat qiladi. Braziliyada esa ARTni bepul taqdim etish, profilaktik testlarni ko'paytirish va barcha ijtimoiy guruhlarining tibbiy xizmatlarga teng etishuvini ta'minlashga qaratilgan. Integral profilaktika modeli OIVga qarshi kurashishda ko'p qirrali

yondashuvni taklif qiladi va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlashga, axborot tarqatish va xulq-atvorni o'zgartishga katta hissa qo'shadi.

Xulosa. OIV infeksiyasini faqat biologik kasallik sifatida emas, balki ijtimoiy konstruksiya sifatida anglash, unga qarshi kurashish strategiyalarini kompleks yondashuv asosida shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Jamiyatdagi siyosiy, madaniy va iqtisodiy omillar, stigmatizatsiya hamda resurslarning teng taqsimlanmasligi virus tarqalishining ijtimoiy ildizlarini belgilaydi. Shu bois, OIV profilaktikasi tibbiy xizmatlar bilan bir qatorda ijtimoiy hamkorlik, huquqiy kafolat va ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tizimiga tayangan holda amalga oshirilishi lozim.

Takliflar. 1. Sektorlararo hamkorlikni kuchaytirish – sog'liqni saqlash, ta'lim, OAV, mahalla va NNTlar o'rtasida OIVga qarshi kurash bo'yicha yagona muvofiqlashtirilgan tizim yaratish.

2. Axborot-ta'lim dasturlarini kengaytirish – yoshlar va ayollar uchun ijtimoiy tarmoqlar, ta'lim muassasalari va diniy markazlar orqali stigma va stereotiplarga qarshi ma'rifiy materiallarni ommalashtirish.

3. Huquqiy va ijtimoiy himoya kafolatlarini mustahkamlash – diskriminatsiyani kamaytirish, anonim test va maslahat xizmatlarini qonuniy asosda himoya qilish.

4. Integral profilaktika modelini joriy etish – "zararni kamaytirish", ishonch muhitini mustahkamlash va erta aniqlashni qo'llab-quvvatlovchi kompleks dasturlarni milliy siyosatga integratsiya qilish.

Mazkur takliflar O'zbekiston sharoitida OIV infeksiyasi tarqalishining ijtimoiy ildizlarini bartaraf etish, barqaror sog'lom jamiyat shakllantirish hamda stigma va qo'rquvni kamaytirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. UNAIDS. Global HIV & AIDS Statistics – Fact Sheet. Retrieved from <https://www.unaids.org/en/resources/fact-sheet>
2. Ontario HIV Treatment Network, Rapid Response #185, March 2025. RR185_Social-and-structural-determinants-of-health-influencing-HIV-risk-and-participation-HIV-care-cascade%20(1) <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC11255029/>
3. Гузенкова Т.С., Петровская О.В., Николайчик И.А. Противодействие эпидемии ВИЧ/СПИД: глобальные тренды и национальная безопасность России» [Текст] // Аналитический доклад. М., 2015. 58 с.
4. Ambrosioni J, Junier T, Delhumeau C, et al. Impact of highly active antiretroviral therapy on the molecular epidemiology of newly diagnosed HIV infections. AIDS. 2012;26(16):2079–2086. doi: 10.1097/QAD.0b013e32835805b6. https://www.unaids.org/sites/default/files/media_asset/UNAIDS_GAM_Framework_2022
5. Pavlovich, M., & Kippax, S. (2010). Behavioral interventions in HIV prevention: Theoretical and practical issues. Social Science & Medicine, 70(3), 351–358. <https://uza.uz/posts/544361>
6. Информационный бюллетень - //Глобальная статистика по ВИЧ, Основные факты// 30 ноября 2020.
7. Sabirova, U. (2021). Foreign experience of university-enterprise cooperation: the development of a communicative environment. Thematics Journal of Social Sciences, 7(5), 35-47.
8. Normo'minovna, S. S. (2025). Oila ichra ko'rinmas tahdid: nazariy yondashuvlar prizmasida. pedagogik islohotlar va ularning yechimlari, 14(02), 41-45.
9. Tagaymuratova, G. T. (2023). Biotibbiyotda zamonaviy ilmiy yangiliklar va ularning axloqiy muammolari. Academic research in educational sciences, 5(NUU Conference 2), 677-684.
10. Shukurova, S. N. (2024). O'zbekistonda oiv infeksiyasi profilaktikasining tibbiy va ijtimoiy ahamiyati. Academic research in educational sciences, (3), 765-768.
11. Tuychiyevna, T. G., & Hulkar, N. (2025). Demografik qarish sharoitida yolg'iz keksalarning ijtimoiy himoyasi. pedagogik islohotlar va ularning yechimlari, 14(02), 126-130.
12. Sevara, S., & Dilshod, B. (2025). Qariyalarning sog'lom qarishini ta'minlashda turizm imkoniyatlari: xorijiy tajribalar asosida. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(6), 1854-1859.
13. Shukurova, S., & Suvonqulova, G. (2025). Gender tenglik barcha ayollar huquq va imkoniyatlarining kafolati sifatida. Hayka i innovatsiya, 3(23), 7-10.
14. Tuychiyevna, T. G. (2025). Yangi davrning imkoniyatlari va xavflari: sun'iy intellekt. zamonaviy ta'limda fan va innovatsion tadqiqotlar, 3(8), 190-196.
15. Normo'minovna, S. S. (2025). Oila ichra ko'rinmas tahdid: nazariy yondashuvlar prizmasida. pedagogik islohotlar va ularning yechimlari, 14(02), 41-45.